

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FE’L SO‘Z TURKUMI

*Annotatsiya: maqolada ingliz tilida fe’lning aniq va noaniq shakllari mavjud bo’lishi, ular gapda tuslanib yoki tuslanmay kelishiga ko’ra bir–biridan farq qilishi, shaxs, son, zamon va payt kategoriyalarida o’zgarib, gapda kesim vazifasida keluvchi fe’l shakllari fe’lning aniq (Finite Forms of the Verbs), ya’ni predikativ shakllari deyilishi haqidagi fikrlar yoritilgan.*

*Kalit so’zlar: fe’lning aniq (Finite Forms of the Verbs), suffiks, leksik-grammatik ma’no, harakat, holat, sifatdosh II, vazifa shakllar.*

Fe’lning grammatik mohiyati haqida gapirganimizda shuni ta’kidlash mumkinki, fe’l mustaqil so’z turkumi bo’lib, harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi. Fe’l quyidagi xususiyatlariga ko’ra mustaqil so’z turkumi sifatida xarakterlanadi:

1. Harakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik-grammatik ma’nosi.
2. O’ziga xos o’zak yasovchi quyidagi suffikslar (-ize, -en, -ify;) va prefikslarga (re-, over-, out-, miss-, un;) hamda leksik-grammatik so’z morfemalarga egaligi.
3. Fe’l boshqa so’z turkumlariga qaraganda so’z o’zgartirish va so’z yasash borasida ancha rivojlangan, bunga sabab uning bir qancha grammatik kategoriyalarga egaligidir.
4. Fe’lning o’ziga xos tarzda bog’lanishi.
5. Gapda turlicha sintaktik vazifalarda kela olishi.

Fe’l asosan shaxs faoliyatini ko’rsatib keladigan so’z turkumidir. Bunday ta’rif har ikkala tilga ham ya’ni, ingliz va o’zbek tillariga xos bo’lib, buni quyidagi misollarda ham ko’rish mumkin:

*Lanny Swarts and Young Mako are coming here tonight. (P. Abrahams)*

*They set down, very shaky, and looked at each other.*

O’zbek tilida ham quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Masalan;

*O’rta maktabni a’lo baholar bilan bitirdi.*

Bu misollarda ajratib ko’rsatilgan so’zlar fe’l turkumiga oid bo’lib, ular gapdagi sub’yektning faoliyatini ko’rsatib kelayapti. Fe’llar boshqa so’z turkumlari kabi morfologik tuzilishiga ko’ra *sodda, yasama va qo’shma fe’llarga* bo’linadi.

*Sodda (yoki tub) fe'llar (Simple (or root) verbs)* bir o'zakdan iborat bo'lib, sodda fe'llar tarkibida qo'shimcha yoki old qo'shimcha bo'lmaydi.

Masalan, ingliz tilida: *to come, to see, to work, to bring, to hate, to grow.*

o'zbek tilida: *kelmoq, ko'rmoq, ishlamoq, o'smoq.*

Fe'l zamon, shaxs nisbat kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lganda, kategorial grammatik suffikslar uning strukturasi o'zgartirmaydi, ya'ni fe'llar sodda fe'lligicha qoladi. Masalan, ingliz tilida: *work – worked – works - working.*

o'zbek tilida: *ishlamoq, ishladi, ishlayapti.*

Ingliz tilida fe'lning aniq va noaniq shakllari mavjud bo'lib, ular gapda tuslanib yoki tuslanmay kelishiga ko'ra bir–biridan farq qiladi. Shaxs, son, zamon va payt kategoriyalarida o'zgarib, gapda kesim vazifasida keluvchi fe'l shakllari *fe'lning aniq (Finite Forms of the Verbs)*, ya'ni *predikativ shakllari* deyiladi.

Masalan: *Mrs Conroy laughed. (I.Ioyce)*

*The two young gentlemen asked the ladies if they might have the pleasure, and Mary Jane turned to Miss Daly. (Ibid)*

*He avoided her eyes he had seen a sour expression on her face. (Ibid)*

Bu misollardagi *to laugh - kulmoq, to ask - so'ramoq, to turn – qayrilmoq, to avoid – ko'zini olib qochmoq, to see – ko'rmoq* fe'llari aniq yoki predikativ shaklda kelayapti.

Harakat yoki holatni umuman ko'rsatish bilan birga qisman belgi yoki predmetlashganlikini ko'rsatib keluvchi fe'l shakllari fe'llarning *noaniq (shaxssiz), (Non-finite forms of the verb)*, ya'ni *predikativ bo'lmagan shakllari* deyiladi. Fe'lning noaniq shakllari harakat yoki holatni gapning egasi bilan bog'lab emas, balki undan ajralgan holda, o'z–o'ziga ko'rsatib kelishi mumkin. Fe'lning noaniq shakllari odatda shaxs, son, zamon, mayl kabi kategoriyalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmaydi. Fe'lning noaniq shakllariga: *infinitiv (Infinitive) harakat nomi, gerundiy (Gerund)*, hamda *sifatdosh (Participle)* kiradi.

*I have come here to speak to you. (Men bu yerga siz bilan gaplashgani keldim.)*

Bu misolni oladigan bo'lsak, bu gapda infinitiv maqsad holi vasifasida kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

*We discussed different methods of teaching foreign languages. (Biz xorijiy tillarni o‘qitishning turli uslublarini muhokama qildik.)* misolida esa ushbu gapdagi gerundiy aniqlovchi vazifasida qo‘llanilgan. Fe’llar o‘tgan zamon shakllarining qay usulda yasalishiga ko‘ra *to ‘g‘ri (Regular verbs)* va *noto‘g‘ri (Irregular verbs)* fe’llarga bo‘linadi. O‘tgan zamon va sifatdosh II shakllari - *ed* suffiksi yordamida yasalgan fe’llar *to ‘g‘ri fe’llar* deyiladi. Masalan:

*to turn – turned*

*to mark – marked*

*to start – started*

O‘tgan zamon va sifatdosh II formasi - *ed* suffiksini olmasdan boshqa turli yo‘llar bilan yasalgan fe’llar *noto‘g‘ri fe’llar* deyiladi. Masalan:

*to write – wrote – written;*

*to sink – sank – sunk;*

*to tell – told – told;*

*to show – showed – shown;*

Yu.S.Maslov ta’kidlaganidek, fe’l vaqt davomida sodir bo‘ladigan belgining, harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so‘z turkumi bo‘lib hisoblanadi. Harakatning grammatik ahamiyatini keng ma’noda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom ma’nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma’lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko‘rsatadi. Tillarni qyoslash orqali ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tushunib yetish o‘z sohamizing mutaxassisisi bo‘lishimizga yordam beradi.

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

1 Бўронов . Ж.Б Ҳошимов .Ў , Исматуллаев . Х “English grammar “ –Т., 1973 .

2 Ўзбек тили грамматикаси . Том 1. Морфология. - Т., 1966.

3.Ильш Б.А. Современный английский язык. – М.: Просвещение, 1948.